

ODIL YOQUBOVNING “KO‘HNA DUNYO” ASARIDA QORA RANG KONSEPTINING FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDON TIZIMI

Xasanova Madina Aliqul qizi

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: *maqolada qora rang konseptining badiiy matnda uslubiy jihatdan xilma-xil semantik ma’nomlarni ifodalashi O.Yoqubovning “Ko’hna dunyo” asari misolida yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *qora, konsept, leksema, “Ko’hna dunyo”, funksional-semantik maydon tizimi.*

Fanda rangga shunday ta’rif beriladi: «Rang moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug’likning muayyan ko’rish tuyg’usini hosil qilish xossasi. Rang (tasviriy san’atda) rang-tasvirning asosiy ifoda va tasvir vositasi. Rang orqali rassom mavjud borliqni hakkoniy aks ettiradi. Tabiatdagi bor ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo’linadi. Axromatik ranglarga oqdan to’q koragacha bo’lgan bo’yoqlar, qolganlari xromatik (qizil, sariq, ko’k va h.k.) ranglarga kiradi. Xromatik ranglar, o’z navbatida, issiq (kizil, sarik, zarg’aldoq) va sovuq (ko’k, moviy, binafsha), shuningdek, har ikkisiga kiruvchi (binafsha, yashil) ranglarga ajratiladi» [5:49]. Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy "Falsafiy savollar va ularga javoblar" asarida "Rang nima?" degan savolga: "Rang yaltiroq jismning nimaga yaltiroq bo’lganining chegarasidir, u jismlarning yuzida ifodalanadi", deya javob bergandi [1:74].

Ingliz etnografi va folklorshunosi Viktor Ternerning Afrika qit’asida yashovchi xalqlar marosim va ritullarida istifoda etilgan rang bilan bog’liq ramzlarning ramziylik tarixida tutgan o’rni haqidagi tadqiqotlarida rang-ramzlar ilg’ab olinish va anglab olinish jihatidan ancha qadimiyroq ekanligi isbotlab berilgan [8: 45]. Olimning fikricha insonlar dastlab oq, qora, qizil bilan bog’liq ranglar asosida turli ramzlarga murojaat qilgan bo’lsa, vaqtlar o’tishi bilan yashil, ko’k, sariq, qizil bilan aloqador ramzlarni yaratishgan. O’zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida rang mavzusiga alohida o’rin berilgan ishlar mavjud. Shulardan biri N.Jumatovanning “Hozirgi o’zbek she’riyatida rang bilan bog’liq ramziy obrazlar” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi. Bu ishda muallif har bir ranga alohida to’xtalib o’tadi. Ranglar ifodalaydigan ramzlar paydo bo’lishida ikki xil ta’sirni ajratib ko’rsatadi. Birinchisi ijtimoiy hayot tarzida yuz beradigan hodisalar natijasida, jumladan, qora va oq ranglari haqida shunday deydi: “Inson dastlab yorug’lik va qorong’ulikni farqlagan. Kunduzi u ovda yoki o’zgalar bilan jang olib borishda turli qiyinchiliklarga uchramagan. Sababi u o’z atroflarini yaxshi ko’ra olgan, turgan joyining jug’rofiy tuzilishini to’la idrok eta olgan. Tun qorong’usida esa buning

butunlay aksi bo'lgan va ko'p zarar ko'rgan. Mana shuning uchun qorong'ulikdan qo'rqgan. Bu qo'rqish esa uning ongida qora rangni yovuzlik va dahshat ramzi sifatida shakllanishiga olib kelgan. qora rangi dahshat o'lim". Ikkinchisi esa diniy e'tiqod bilan uzviy aloqada hosil bo'lgan ramzlardir. "Qora rangi dahshat, o'lim va yovuzlik yer osti ramzi sifatida barcha marosim va udumlarimizda chuqur o'rin olgan" [2:13]. Bundan tashqari muallif qora so'zi boshqa leksemalar bilan birikma hosil qilishini ham aytib o'tgan. Masalan, "Er bo'l, er bo'lmasang, qaro yer bo'l" [9:55] maqolida "qaro yer" birikmasi o'lim ma'nosini bildiruvchi ramziy obraz ekanligi keltirilgan [2:16].

Sharq xalqlari haftaning har bir kunini ma'lum bir rang bilan ataganlar. Bunda qora – shanba – Zuhul (Saturn). Dunyoning to'rt tomonida shimol – qora [6:31]. N.Mironovanning "Цветоведение" kitobida esa yil fasllaridan qish, unsurlar va narsalarni suv, yer tomonlaridan shimol, planetalardan Merkuriy, hayvon ramzlaridan toshbaqa – qora rang timsoli hisoblangan [3:10]. Folklorda esa qora rangi bilan bog'liq ko'plab misollarni uchratishimiz mumkin. «...Turkiy xalqlar qadimdan oq, ko'k, qora ranglarni o'z ibtidoiy turmushlarining ma'lum qirralari bilan bog'lab tushunganlar. Masalan, ular dunyoning bir qismi bo'lmish o'liklar olamini oppoq yo'klik rangida idrok etishgan va uni ko'rib bo'lmaslik misolida buni tasdiklashga urinishgan. Azada oq rangdagi kiyim o'liklar va tiriklar dunyosi o'rtasidagi aloqa timsolida kiyiladi. Qora rangdagi kiyim esa odam o'lgan yomon kunda shu yomonlikning, og'ir musibatning ramzi sifatida kiyiladi. Chunki ajdodlarimiz yomonlik va o'limni qora rangda tasavvur qilishgan [10:77-78]. Tarix kitoblarida keltirilishicha, qoraxoniylar davlarida: "Mazkur davlat hukmdorlari "jabg'u" deb yuritilgan unvonning o'rniga o'zlarini "qoraxon", ya'ni "buyuk xon" deb ataydilar [4:55]. Bundan kelib chiqadiki, qora rangi faqat salbiy ramz ifodalab qolmasdan, balki, ijobiy ma'nolarni ham ifodalagan.

"Ko'hna dunyo" asarida qora rang, asosan, salbiy ma'nolarni shakllantirishdan tashqari ajratuvchi, turni bildiruvchi, salobatni oshiruvchi sifatida qo'llaniladi. Masalan, Bukriy degan, o'zi pakanagina bo'lsa ham boshi xumday, nimasi bilandir katta qora o'rgimchakka o'xshab ketadigan keksa naychi kirib kelishdi [7:5], jumlasida Bukriyning qora o'rimchakka o'xshatilishi uning rangi qoraligiga, ham ta'na tuzilishining o'rgimchakka qiyoslanishi, ya'ni qaddini egib yurishi, ham fe'l-atvorining yomonligini anglatib turibdi.

Qoralik insonning ba'zi a'zolariga xos bo'lganda u go'zallikni, nafislikni o'zida mujassam etadi, ayniqsa, sharq ayol-qizlarida bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni ijodkorning Sadafbibini tasvirlashida ko'rish mumkin: Nargizabonu, ikki barmog'i kesilgan mayib qo'li bilan to'zg'igan sochlarini tuzatarkan, katta-katta tim qora ko'zlari allaqanday charaqlab: – Bu so'z rostmi, mirzam? – deb so'radi. – Hazrat Ibn Sino...[7:16]; Sadafbibini esa qoramag'izdan kelgan, yuzlari yum-yumaloq, qosh-ko'zlari qop-qora [7:24]. O'tovning to'rida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida, uzun tim

qora sochlariga behisob kumush tanga va mitti qo'ng'iroqchalar taqilgan bir qiz yotibdi [7:214]. Yutinganda go'dakning tomog'iday nimjon, oppoq tomog'ining ostidagi moshdek qora xoli qandaydir ojizgina qimirlab qo'yadi... [7: 214]. Ijodkor yolg'iz qora sifatini keltirish bilan qoniqmay, unga tim, qop-qora kabi orttirma darajani qo'shish orqali go'zallikka go'zallik qo'shadi, Sadafbibini ko'z oldimizda turgandek mahliyo qilishga majbur qiladi.

Ma'no ko'chishi orqali qora leksemasi orqali hosil qilinganda ko'p hollarda soya so'ziga ishora qilinadi. Bunday hollarda qora metaforasi qaysidir tilidan aytiladi va salbiy ma'no ishtirok etadi. Shu bugundan boshlab saroyda sening qorangni ko'rmayin, Qutlug'qadam! Seni ham, Qorag'ulom!.. Bilamen, sen menga salkam yigirma yil halol xizmat qilding. Ammo bugun men seni farzandingga qo'shib dargohimdan haydamoqdan boshqa choram yo'q... Ayb menda emas, Qorag'ulom, ayb takabbur zurriyotingda! Bergan tuzimga rozimen, Qorag'ulom!.. Valine'mat padari Qorag'ulom, – Alloh uning ruhini shod etgay, – cho'yanday qop-qora, alpqomat odam edi [7:19]. Keltirilgan parchada sulton Qutlug'qadamning birgina aybi uchun yigirma yillik mehnatlariga qaramay unga Qorag'ulom undalmasi bilan murojaat qiladi. Bu yerda ruhiy holardan tashqari, Qutlug'qadamning oddiy, qora ishlarni qiladigan cho'ri ekanligi ham nazarda tutilgan. Oq tan va qora tan bu irqarni belgilovchi belgilardan biridir. O.Yoqubov hind so'zini keltirish bilan qanoatlanmay, uning asosiy belgisini ham keltirishni joiz deb hisoblaydi:

«O't» so'zini eshitganda yaqindagi chakalakzorda g'uj bo'lib yotgan, hammasi bir xil sariq ko'ylak, bir xil sariq ipak shalvar kiygan qora tanli hind zodagonlari orasida g'ala-g'ovur ko'tarildi [7:51].

Yuqorida keltirilgan misollarda shaxsga murojaat etilgan bo'lsa, qora leksemasini narsa va hodisalarga ham qo'llab, uni turli maqsadlarda ishlatadi: Nafis kumush taqsimchalarda po'sti yupqa g'alvirak bodomlar, xurmo va pistalar, qora mayiz va ko'k kishmish, qaymoqqa qorilgan issiq patirlar, somsa va bedana qovurdoqlar, bug'i burqirab turgan sho'rvayi sher, qo'yingki, olamda neki ne'mat mavjud, hammasi muhayyo bo'ldi [7:245]. Bu gapda qora sifati mayiz ifodalash uchun xizmat qilgan. Nigohi oldiga qorong'i yerto'la keldi, yerto'laning burchagida ulkan qora kalamushday g'imirlab, yum-yumaloq qutichani topib chiqqani, uning ichidagi bebaho javohirni ko'z-ko'z qilib, Sadafbibini so'rab yalinib-yolvorganlari xayolida jonlandi-yu, a'zoyi badanini sovuq ter bosdi [7: 253]. Qora kalamush kalamushning bir turi bo'lib, uy kalamushi deb ham yuritiladi. Demak, bu yerda hayvon turini anglatmoqda. Saropardaning chap tomonida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida... boshiga qora telpak, egniga uzun qora jun chakmon kiygan bir odam...[7: 256]. Bu misollarda esa telpak va junning sifatini ifodalamoqda.

Xulosa qilib aytganda, qora rang konsepti faqat salbiy emas, balki ijobiy xususiyatga ham egadir. Shunga qaramasdan unda salbiylik bo'yog'i ustuvorlik qiladi. Qora rang konsepti O.Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanida eng faol qo'llangan rang konseptidir. Ijodkor uni shaxslarga, narsalarga, hodisalarga, holatlarga nisbatan qo'llab, turli ma'nolarni ochib berishda, turli o'rinlarda ishlatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Falsafiy savollar va ularga javoblar. Toshkent: Fan, 1953.–74 b.
2. Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar. -36 b. Avtoreferat.
3. Mironova N. Cvettovedenie. – M.: Hayka. 1986. – 180 b.
4. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. . – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017. –55 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 300 b.
6. Res'at Genc. Turkiy xalqlarning milliy an'analarida ranglar va sari qizil va yashil. Turk Tarix Kurumu Basimevi, Anqara, 1997, - 31 b.
7. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. –Toshkent: Yangi nasr avlodi, 2015. 480 b.
8. Тэрнер Вю Символ и ритуал. – М.: Наука, 1983. – 45 б.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: Фан. – 1998. – 126 б.
10. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. Тошкент: Фан, 2004. –79 б.